

SAODAT QOBULOVA IJODIDA MILLIY IJROCHILIKNING TUTGAN O'RNI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.039>

Samadov Ro'zimurot Rizamatovich
samadovrozimurod15@gmail.com

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston xalq artisti, opera va maqom san'atining yetuk xonandasi, pedagog Saodat Qobulova ijodini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada uning o'zbek milliy mumtoz musiqasiga qo'shgan hissi, vokal ijrochilik uslubi va pedagogik faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada xalq musiqa san'ati va og'zaki an'analardan foydalangan holda uning ijodiy faoliyati orqali yosh avlodni tarbiyalash imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: opera, vokal, maqom, ashula, qo'shiq, Dugoh, Bayot, Navo, Iroq, tanbur, sato, ud

THE ROLE OF NATIONAL PERFORMANCE IN SAODAT QOBULOVA'S CREATIVITY

Samadov Rozimurot Rizamatovich
samadovrozimurod15@gmail.com

Institute of Uzbek National Music named after Yunus Rajabiy

Abstract: This article is dedicated to the study of the creative work of Saodat Qobulova, People's Artist of Uzbekistan, a prominent opera and maqom singer, and pedagogue. The article analyzes her contribution to Uzbek national classical music, her vocal performance style, and pedagogical activities. Additionally, it discusses the possibilities of educating the younger generation through her creative work, which draws on folk music art and oral traditions.

Keywords: opera, vocal, maqom, song, Dugoh, Bayot, Navo, Iroq, tanbur, sato, ud

Har bir millatning o'z madaniyati, ma'naviyati, an'ana-udumlari va albatta milliy ruhi bo'ladi. Bu esa asrlar davomida shakllanib avloddan avlodga an'ana asosida o'tib, saqlanib kelinadi. Bizning shunday beqiyos milliy boyliklarimiz va an'ana - udumlarimiz musiqa san'atimizda hamda folklor namunalarimizda o'z asksini topib kelgan. O'zbek musiqa san'ati o'tgan asrda katta iste'dod egalarini kashf etdi. Xoji

Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Halima Nosirova, Tamaraxonim, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Muxtor Ashrafiy, bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Sanaganlarimizning bari o'zbek musiqa san'atida o'z uslubi, yangi musiqiy yo'nalishi bilan nom qoldirgan, buyuk siymolardir. Shunday iste'dodlardan yana biri Saodat Qobulova hisoblanadi.

O'zbek xonandalik san'atida yangi davr yaratib, Yevropa xonandalik xususiyatlarini milliy ashulachilik yo'li bilan, uyg'unlashtirgan Saodat Qobulova 15 yoshdan to umrining oxirigacha musiqa va ashula olamida yashadi. Saodat Qobulova 1925-yil 15-dekabrda Marg'ilon shahrida musiqachilar oilasida tavallud topgan. Hayot qiyinchiliklarini yengib musiqa san'atiga, ayniqsa qo'shiqchilikka ixlos qo'yadi va bunga tinmay intiladi¹.

Noyob ovoz, yuqori iste'dod sohibi va mahoratli ijrochi Saodat Qobulova ijrosidagi o'zbek va jahon opera san'ati na'munalari, milliy mumtoz shoh asarlari va xalq qo'shiqlari odamlar qalbiga chuqur o'rnashib, xalqimizning ma'naviy boyligiga aylandi. Saodat Qobulovaning ijodiy faoliyati o'zbek san'atida yangi yo'l ochdi. Ustozning milliy ashulachilikdagi faoliyati o'zbek musiqasida yangi maktab bo'lib sahifa ochdi.

O'zbek milliy musiqa madaniyati rivojini o'ziga xos ovoz sohibasi Saodat Qobulovasiz tasavvur qilish qiyin. Saodat Qobulova yarim asrdan ziyod davr mobaynida o'zbek ashulachilik san'atining turli sohalarida o'zining ko'p qirrali, ya'ni ijrochilik, pedagogik, ijtimoiy-musiqiy, ma'rifiy faoliyati bilan xizmat qilib keldi.

Saodat Qobulova yuqorida aytilganidek, san'atga juda erta kirib keldi. U Yevropa xonandalik xususiyatlarini milliy ashulachilik yo'llari bilan uyg'unlashtirib, o'zbek xonandalik san'atida yangi davr boshlab berganlardan biri hisoblanadi. Uning ovozi ikki yarim oktavani tashkiletgan bo'lib, lirik koloraturo soprano hisoblangan. Saodat Qobulova ijodiy faoliyati davomida milliy xonandalik san'ati va musiqa me'rosi na'munalarini asosan, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, To'xtasin Jalilov, Xolxo'ja To'xtasinov, Emanuel Barayevlardan o'zlashtiradi. Necha avlodning bolaligi Saodat Qobulovaning "Alla"sini eshitish bilan o'tgan. Xonanda ijro etgan "Dugoh", "Ko'ngil", "Qalamlar" esa hanuz muhabbat ahlining yurak so'zlari bo'lib yangrab kelmoqda. O'zbek klassik, maqom va zamonaviy ashulalar Saodat Qobulova repertuaridan mustahkam o'rin olgan. U kuylagan va magnit tasmlariga tushurilgan "Bayot 1, 2, 3, 4", "Talqini Bayot", "Sarahbori Oromijon", "Ushshoq", "Samarqand Ushshug'i", "Chapandozi Navo", "Dugoh Husayniy", "Buxoro Irog'i", "Etnasmidim", "Bu ko'ngildir", "Aylagach", "Naylayin", "Mujgonlaring", "Mubtalolardan biri", "Ey sabo", "Alla", "Dugonalar bormisiz", "Davra qo'shig'i",

¹ www.ziyo.uz kutubxonasi wikiyediya

“Bahor”, “Qora ko‘zlar”, “Karvon keldi” kabi o‘nlab ashulalar va o‘zbek bastakorlarining romanslari hech qachon o‘z qadrini yoqotmaydi.

Saodat Qobulova va Xolxo‘ja To‘xtasinovning hamkorligida yaratilgan “Aylagach” ashulasi yetuk ijod namunasiga aylandi va hozirgi kunda ham xalq orasida juda mashhur va sevib eshitilib kelinadi. Saodat Qobulova esdsaliklarida 1943-yili “Aylagach”ning sharhini bir suhbatda shoirlar tushuntirib berganini yozadilar va: “Men o‘sha suhbatni hali ham eslayman, u suhbat sururi hali hamon ko‘nglimda” deb xotirlaydilar. Saodat Qobulova Aylagachni ijro etganlarida endigina 18 yoshda edilar. Xonanda talqinidagi “Aylagach” ijroning nafisligi, shirali va shirin, nafis ovoz, so‘zlarning aniq hamda to‘g‘ri talafuzi va albatta sehrli kuy g‘azalga shunday bir uyg‘unlik kasb etdiki, tinglovchilarning qalbiga o‘ziga xos zavq - shavq baxsh etardi².

Saodat Qobulova ijodining yorqin namumalaridan biri “Dugoh Husayn”dir. Sobir Abdullaning:

*Qay kunki bo‘ldi bu ko‘ngul husningni volasi,
Shul kun yozildi sevgining lavhi - risolasi.*

Bayti bilan boshlanuvchi g‘azalni “Dugoh Husayn” ga bog‘lab aytadilar. Bunda ham X.To‘xtasinovning xizmati beqiyos bo‘ldi. Qolaversa Saodat Qobulova “Bayot”larni ham X. To‘xtasinov bilan tayyorlaydilar. Xolxo‘ja To‘xtasinov “Bayot 1” ga Navoiyning “*Ne bo‘ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang*”, “Bayot 2”ga ham Navoiyning “*Ko‘rgali husningni zoru muftalo bo‘ldim sango*”, “Bayot 3”ga Muqumiyning “*Aqlu xush uchdi boshimdan ey pari devonaman*” matlasi bilan boshlanadigan g‘azallarni qo‘yib Saodat Qobulovaga o‘rgatadi³.

Saodat Qobulova faoliyatida Emanuel Barayevning ham o‘rni kattadir. E. Barayev o‘z davrining iste‘dodli tanburchi sozandasi bo‘lgan va maqom yo‘llarini yaxshi bilgan⁴. Saodat Qobulova ustozdan ilk bor “Qo‘qon Ushshog‘i” ni eshitganlarida qandaydir sehr og‘ushida qolganliklarini eslaydilar. Esdalik daftarlarida bunday ta‘riflaydilar: “Emanuel Barayev ud sozida o‘ta kuchli, usta tanburchi, Samarqandlik. Satoni men o‘sha sozandadan eshitdim. U kishi satoni, tanburni chalganida eshitgan odam go‘yoki simob bo‘lib erib ketar edi”. Saodat Qobulova E. Barayevdan Zebiniso g‘azali bilan “Samarqand Ushshog‘i”ni, Tojidavlat g‘azali bilan “Buxoro Irog‘i”ni, Hofiz Sheroziy g‘azallari bilan “Chapandozi Navo”, “Talqini Bayot” va “Saraxbori Oromijon”ni o‘rgangan. 1945-yilda “Ushshoq” Saodatxonim ijrolarida magnit tasmasiga yoziladi, tanburda E. Barayev jo‘r bo‘lgan. Bu “Ushshoq” “Injost” radifli g‘azal bilan aytilgan bo‘lib, unda katta avj bo‘lmagan. Keyinchalik bunga Hoji Abdulaziz jilo berganlar va “Samarqand Ushshog‘i” deb mashhur bo‘lgan kuyda Avji Turk va Zebo Pari avjlari bilan aytilgan. “Samarqand Ushshog‘i” 1986-yili

² Urfon otajon. San‘at mening quyoshimdir. Toshkent 2006-yil. 48-bet.

³ Urfon otajon. San‘at mening quyoshimdir. Toshkent 2006. 81-bet.

⁴ O. Sradjeva. Pedagogicheskie principy S.Kabulovoy. 1996. 26-bet

yoziladi. Gʻanijon Toshmatov gʻijjakda, Orifxon Xotamov tanburda, Orif Qosimov va Mahmud Yunusov dutorda joʻr boʻlishgan. 1997-yilda radio magnit tasmasida "Buxoro Irogʻi" yoziladi. Abduhoshim Ismoilov gʻijjakda, Temur Mahmudov changda, Abdulahat Abdurashidov nayda, Abdurahmon Xoltojiyev qonunda, Malika Ziyoyeva dutorda, Rahmatulloh Samadov doirada joʻr boʻlganlar.

Saodat Qobulova nafaqat ijrochi, balki musiqa pedagogi sifatida ham tanilgan. U konservatoriyada professor va kafedra mudiri boʻlib, yosh vokalchilarni oʻqitgan, milliy musiqa anʼanalari va vokal texnikasini ularga yetkazgan. Uning pedagogik faoliyati quyidagi jihatlarni oʻz ichiga oladi:

Milliy anʼanalarni saqlash va rivojlantirish - xalq musiqasi va ogʻzaki meros orqali yoshlar tarbiyasi.

Vokal texnikaning mukammal shakllanishi - lirik-koloraturo soprano uslubida nafas, ohang va dramatik ifoda ustida ishlash.

Ijodiy tarbiya va etika - sanʼatkor va pedagog sifatida talabalarga maʼnaviy qadriyatlarni singdirish. Shuningdek, u oʻz repertuarida milliy va xalqaro musiqiy merosni uygʻunlashtirgan, bu esa yosh avlodni ijodiy va estetik jihatdan tarbiyalashda samarali vosita boʻlgan⁵.

Yillar mobaynida Saodat Qobulovanning koʻngillarida hazrat Alisher Navoiy gʻazallari bilan toʻqqizta ashuladan iborat bir guldasta tayyorlash orzusi tugʻildi va magnit tasmasiga bu turkum 2002-yilda yozildi. Bu turkumga "Bayot 1, 2, 3, 4, 5", T. Jalilov musiqasida "Yori bor", D. Zolirov musiqasida "Ey sabo", X. Toʻxtasinov musiqasi bilan "Aylagach", D. Zokirov musiqasida "Koʻrmadim" kabi namunalar kiritildi. Bu turkumni tayyorlash va yozishda Abduhoshim Ismoilov rahbarligidagi sozandalar ansambli qatnashdi.

Saodat Qobulovanning ijodiy faoliyatiga nazor soladigan boʻlsak, ijrodagi yorqinlik, ovoz ishlatish mahori, ovozning tembr va diapazonining boyligini koʻrish mumkin. Ustoz esdalik daftarlarida milliy ashulalarga boʻlgan mehri, sevgisini joʻshqin hissiyotlar bilan yozgan. Darhaqiqat, Saodat Qobulovanning sanʼatdagi ilk qadami, faoliyatining rivoji hamda xalq olqishiga sazovor boʻlishiga milliy yoʻnalishda aytgan ashula va qoʻshiqlarining oʻrni beqiyosdir.

Saodatxonim talqinlaridagi ijro namunalar hozirgi kunda OʻzMETRK va Oʻzbekiston radiosining "oltin xazinasida" saqlanib kelinmoqda.

Iqtidori, bilimlari va tajribalarini mamlakatimiz madaniyati va sanʼati ravnaqi uchun bagʻishlagan fidokor sanʼat arbobining koʻp yillik mehnati, koʻp qirrali ijodiy faoliyati davlatimiz tomonidan munosib baholangan. Saodat Qobulova vatanimiz oliy mukofotlariga loyiq topilgan - "Doʻstlik", "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari, "Oʻzbekiston xalq artisti kabi unvonlari berilgan.

⁵ <https://chatgpt.com/c/699202be-922c-832b-91e3-04e35f8874a1>

Saodatxonim Qobulova ijro etgan ashula va qo'shiqlar hamda ijrochilik uslublari bugungi kun xonandalariga tayyor qo'lanma bo'lib kelmoqda. U milliy vokal an'analari, xalq musiqasi va og'zaki ijrochilik merosini sahnaga olib chiqib, ularni zamonaviy san'at bilan uyg'unlashtirgan. Shu bilan birga, u yosh avlodni madaniy, ma'naviy va estetik jihatdan tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Uning ijodi nafaqat opera va kontsert sahnasida, balki pedagogik faoliyat va milliy musiqiy merosning saqlanishida ham yuqori ahamiyat kasb etadi. Bugungi kun yosh ijrochilari shu kabi yetuk san'at darg'alarining ijro etgan durdona asarlarini qunt bilan o'rganib, kelajak avlodga ham yetib borishiga o'z hissasini qo'shmog'i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O .Sradjeva. Pedagogicheskie prinsipy S.Kabulovoy. 1996.
2. T.Yuldashbayeva. Vokalno-s senicheskoe tvorechestvo S.Kabulovoy. 1996.
3. Urfon otajon. San'at mening quyoshimdir. Toshkent 2006.
4. N.B.Qahharov. Vokal asoslari (Ovoz va forte piano uchun); Toshkent. 2008 y